Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
ANIQ FANLAR

O'QUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI AMALIY METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Nafisa Muzaffar qizi Toirova*
Andijon davlat pedagogika instituti
✉ nafisatoirova838@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda zamonaviy raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mediasavodxonlik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda feyk xabarlar, kiberbulling va fishing kabi xavflarga qarshi tanqidiy fikrlash, kiber-gigiyena, raqamli etika hamda media-yaratuvchanlik kabi tayanch komponentlarni rivojlantirish zarurati asoslangan. Kontent-tahlil va situatsion-keys (case-study) metodologiyasi asosida o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun interaktiv amaliy keyslar ("Axborot detektivi", "Raqamli iz" va rolli o'yinlar) taklif etilgan hamda ta'lim amaliyoti uchun samarali tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, kiber-gigiyena, raqamli etika, keys-metod, fakt-cheking, kiberbulling.

DOI: 10.5281/zenodo.21743398

KIRISH

Bugungi kunda axborot almashinuvi misli ko'rilmagan tezlik va hajmda kechmoqda: zamonaviy o'quvchi an'anaviy darsliklar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn resurslar qurshovida ulg'ayib bormoqda. Bu esa feyk xabarlar, kiberbulling, fishing va manipulativ kontent kabi jiddiy xavflarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli o'quvchida axborotni tanqidiy tahlil etish va xavfsiz foydalanish imkonini beruvchi mediasavodxonlik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

D.Buckingham [3] va R.Hobbs [5] kabi tadqiqotchilar mediasavodxonlikni raqamli asrda shaxsning axborot makonida xavfsiz harakatlanishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ko'rsatadilar, W.J.Potter [7] esa uni media-xabarlarni tahlil qilish, baholash va mas'uliyat bilan kontent yaratish ko'nikmalari majmuasi deb ta'riflaydi. UNESCO [8] tavsiyalarida mediasavodxonlik nafaqat texnik, balki fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq kompetensiya sifatida talqin etiladi. Mahalliy tadqiqotchilar (A.Ahmadaliyev [1], M.Alimova [2], K.Mamadaliyev [4]) ishlarida raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va fakt-cheking ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tahlil mediasavodxonlikning to'rtta tayanch komponentini – tanqidiy fikrlash, kiber-gigiyena, raqamli etika va media-yaratuvchanlikni – ajratib ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kontent-tahlil hamda situatsion-keys (case-study) yondashuvi tanlab olindi. O'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun uchta amaliy interaktiv keys ishlab chiqildi: "Axborot detektivi" (fakt-cheking va tanqidiy fikrlash – o'quvchilar soxta xabarni aniqlash algoritmini egallaydilar), "Raqamli iz va kiber-gigiyena" (shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish – fishing holatlarida xavfsizlik protokoli ishlab chiqiladi) va "Post va Izoh" rolli o'yini (raqamli etika va kiberbullingga qarshi reaksiya – Report/Block/Ignore/support-comment strategiyasi o'zlashtiriladi). Bunda o'qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator) rolini bajaradi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik faqat nazariy ma'ruzalar bilan emas, real

hayotiy situatsiyalarni modellashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishadi: taklif etilgan keys-metodlar o‘quvchilarni passiv axborot iste’molchisi bo‘lib qolishdan saqlaydi va ularda raqamli muhitdagi mas’uliyatli xatti-harakatni shakllantiradi.

Xulosa va tavsiyalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: maktablarda fanlararo “Mediasavodxonlik haftaliklari” va fakt-cheking to‘garaklarini tashkil etish, “Raqamli etika va netiket kodeksi”ni ishlab chiqish; dars mashg‘ulotlariga kamida bitta interaktiv media-keysni integratsiya qilish; o‘quvchilar bilan taqiqlash emas, xavflarni birgalikda muhokama qilish strategiyasini qo‘llash hamda o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslarida kiber-xavfsizlik mavzulariga ko‘proq soat ajratish. Media savodxonlik – bir marta beriladigan bilim emas, balki texnologiyalar bilan birga uzluksiz rivojlanadigan hayotiy kompetensiya bo‘lib, uni maqsadli shakllantirish o‘quvchini axborot xurujlaridan himoyalash bilan bir qatorda uni jamiyatning mas’uliyatli, raqamli madaniyatga ega a’zosiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Ahmadaliyev A.K. Pedagogika va raqamli texnologiyalar: integratsiya va rivojlanish bosqichlari. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 160 b.
2. Alimova M.S., Jo‘rayev R.H. Zamonaviy ta'limda mediasavodxonlik va raqamli madaniyatni shakllantirish texnologiyalari. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2022. – 184 b.
3. Buckingham D. The Media Education Manifesto. – Polity Press, 2019. – 140 p.
4. Mamadaliyev K.R. Maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va fakt-cheking ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi // Uzluksiz ta’lim. – 2021. – № 4. – B. 45–50.
5. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – The Aspen Institute, 2010. – 68 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kiber-xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha metodik qo‘llanma. – T., 2023. – 72 b.
7. Potter W.J. Media Literacy. – 9th ed. — SAGE Publications, 2018. – 520 p.
8. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! – UNESCO Publishing, 2021. – 188 p.